

OFITSER-O'QITUVCHINING KASBIY PEDAGOGIK KOMPETENTLIGI

E.N.Pirimqulov

O'R HX va MU HAI AMT kafedrası

AJ sikli katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada harbiy ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi ofitser-o'qituvchining kasbiy pedagogik kompetentligi tushunchasi, uning tarkibiy tuzilishi va shakllantirish yo'llari tahlil qilinadi. Muallif kompetentlikning motivatsion-qadriyatli, kognitiv, operatsional-texnologik, kommunikativ, reflektiv-baholovchi va harbiy-kasbiy komponentlarini ajratib ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari asosida kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va amaliy tavsiyalar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetentlik, pedagogik kompetentlik, ofitser-o'qituvchi, harbiy ta'lim, pedagogik mahorat, kompetentlik komponentlari, professional rivojlanish.

Аннотация: В статье анализируются понятие профессионально-педагогической компетентности офицера-преподавателя военно-учебного заведения, её структура и пути формирования. Автор выделяет мотивационно-ценностный, когнитивный, операционально-технологический, коммуникативный, рефлексивно-оценочный и военно-профессиональный компоненты. На основе результатов исследования предложены педагогические условия развития компетентности и практические рекомендации.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, педагогическая компетентность, офицер-преподаватель, военное образование, педагогическое мастерство, компоненты компетентности, профессиональное развитие.

Abstract: The article analyses the concept of the professional pedagogical competence of an officer-instructor in a military educational institution, its structure and ways of formation. The author identifies the motivational-value, cognitive, operational-

technological, communicative, reflexive-evaluative and military-professional components. Based on the research results, pedagogical conditions for developing this competence and practical recommendations are proposed.

Keywords: professional competence, pedagogical competence, officer-instructor, military education, pedagogical skill, competence components, professional development.

Kirish

Zamonaviy harbiy ta'lim tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri yuqori malakali, kasbiy jihatdan tayyor va pedagogik mahoratga ega ofitser-o'qituvchi kadrlarni shakllantirishdir. Harbiy xizmatchilarni tayyorlash sifati bevosita ta'lim jarayonini tashkil etuvchi ofitser-o'qituvchining kasbiy pedagogik kompetentligiga bog'liqdir. Chunki u nafaqat maxsus harbiy va texnik bilimlarni egallagan mutaxassis, balki ayni paytda tarbiyachi, murabbiy va pedagogdir.

O'zbekiston Respublikasida Qurolli Kuchlarni isloh qilish va harbiy ta'limni rivojlantirish borasidagi keng ko'lamli chora-tadbirlar ta'lim beruvchi shaxsning kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarni sezilarli darajada oshirdi. Bugungi kunda ofitser-o'qituvchidan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish hamda tinglovchilarda mustaqil fikrlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish talab etilmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi-ofitser-o'qituvchining kasbiy pedagogik kompetentligi mohiyatini, tarkibiy tuzilishini va uni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini nazariy va amaliy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida harbiy aviatsiya institutida aviatsiya jihozlarini o'qitish jarayoni tanlab olindi.

Mavzuning dolzarbligi bir necha omillar bilan izohlanadi. Avvalo, harbiy texnikaning, xususan aviatsiya jihozlarining tez sur'atlar bilan yangilanib borishi o'qituvchidan doimiy ravishda o'z bilimlarini takomillashtirishni talab etadi. Ikkinchidan, zamonaviy tinglovchi-bu axborot texnologiyalari muhitida o'sgan yosh avlod bo'lib, unga an'anaviy o'qitish usullari bilan ta'sir ko'rsatish yetarli emas. Uchinchidan, harbiy ta'lim

tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish jarayoni pedagogik kadrlar sifatiga yangi talablar qo'yimoqda.

Tadqiqotning metodologik asosini kompetentlik yondashuvi, tizimli va faoliyatli yondashuvlar tashkil etadi. Ishda nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, so'rovnoma, tajriba-sinov va statistik ishlov berish usullaridan foydalanildi.

Mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, umumiy pedagogik kompetentlik masalalari yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, aynan harbiy ta'lim sharoitida, xususan texnik yo'nalishdagi ofitser-o'qituvchi kompetentligini shakllantirishga bag'ishlangan tadqiqotlar hali kam. Ushbu maqola mazkur bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan urinishlardan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili


Kompetentlik - tushunchasi pedagogik adabiyotlarda shaxsning muayyan sohada samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat va shaxsiy sifatlar yig'indisi sifatida talqin etiladi. Kasbiy pedagogik kompetentlik esa o'qituvchining o'quv-tarbiya vazifalarini yuqori darajada, mustaqil va mas'uliyat bilan hal eta olish qobiliyatini ifodalaydi.

Kompetentlik yondashuvi pedagogika faniga XX asrning ikkinchi yarmida kirib kelgan bo'lib, uning rivojlanishiga J. Raven, W. Hutmacher, I.A. Zimnyaya, V.A. Slastenin, A.K. Munavvarov kabi olimlar salmoqli hissa qo'shgan. Ushbu olimlarning tadqiqotlarida «kompetensiya» (belgilangan talab, me'yor) va «kompetentlik» (shaxsning ushbu talabni bajarishga bo'lgan real qobiliyati) tushunchalari farqlanadi. Biz maqolada mazkur farqlashga tayangan holda ish yuritamiz.

Ofitser-o'qituvchining kasbiy pedagogik kompetentligi o'ziga xos xususiyatga ega, chunki u ikki tomonlama tabiatga ega: bir tomondan - harbiy-kasbiy tayyorgarlik va harbiy tajriba, ikkinchi tomondan - pedagogik bilim va mahorat. Aynan shu ikkita jihatning uyg'unligi ofitser-o'qituvchini oddiy fan o'qituvchisidan farqlab turadi. Ko'pincha yuqori

malakali harbiy mutaxassis o‘z bilimlarini tinglovchilarga yetkazishda qiynaladi - bu esa aynan pedagogik kompetentlikning yetishmasligidan dalolat beradi.

Tadqiqot davomida ofitser-o‘qituvchining kasbiy pedagogik kompetentligi tuzilishida quyidagi asosiy komponentlar ajratib ko‘rsatildi (1-rasm):



1-rasm. Ofitser-o‘qituvchi kasbiy pedagogik kompetentligining tuzilishi

Motivatsion-qadriyatli component-pedagogik faoliyatga bo‘lgan ijobiy munosabat, kasbga sadoqat, Vatanga xizmat qilish qadriyatlari va o‘z ustida ishlashga intilishni o‘z ichiga oladi. Bu komponent butun kompetentlikning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Kognitiv (bilim) komponenti - o‘qitiladigan fan sohasidagi chuqur maxsus bilimlar, shuningdek pedagogika, psixologiya va o‘qitish metodikasi bo‘yicha nazariy bilimlar majmuidir.

Operatsional-texnologik komponent - zamonaviy ta’lim texnologiyalari, interfaol usullar, mashg‘ulotni loyihalash va o‘tkazish, baholash tizimlarini amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini qamrab oladi.

Kommunikativ komponent - tinglovchilar bilan pedagogik muloqot o‘rnatish, jamoada munosabatlarni boshqarish, nutq madaniyati va notiqlik mahoratini ifodalaydi.

Refleksiv-baholovchi komponent - o‘z faoliyatini tahlil qilish, xato va kamchiliklarni aniqlash hamda o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatidir.

Harbiy-kasbiy komponent - harbiy tajriba, intizom, mas'uliyat, ofitserlik obro'-e'tibori va shaxsiy namuna ko'rsatish orqali tarbiyaviy ta'sir o'tkazish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Aynan shu komponent harbiy pedagoglik kompetentligining o'ziga xosligini belgilaydi.

Ta'kidlash joizki, ushbu komponentlar tinglovchilar ongida faqat bilim emas, balki qat'iy e'tiqod, kasbiy mas'uliyat va Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan. Harbiy ta'limda o'qituvchi shaxsi o'zi bir tarbiya vositasiga aylanadi: uning yurish-turishi, muomalasi, kasbiy mahorati tinglovchilar uchun namuna bo'lib xizmat qiladi. Shu ma'noda ofitser-o'qituvchining pedagogik kompetentligi uning shaxsiy fazilatlaridan ajralmasdir.

Zamonaviy sharoitda mazkur komponentlar tarkibiga axborot-kommunikatsiya kompetentligi ham qo'shilmoqda. Raqamli ta'lim resurslari, masofaviy o'qitish platformalari va elektron o'quv materiallarini yaratish ko'nikmalari bugungi kunda ofitser-o'qituvchi uchun zaruriy talabga aylandi. Bu esa an'anaviy pedagogik kompetentlik tuzilishini boyitib, uni davr talablariga muvofiqlashtirishni taqozo etadi.

Sanab o'tilgan komponentlar bir-biridan ajralgan holda emas, balki yaxlit tizim sifatida faoliyat yuritadi. Masalan, kognitiv komponent qanchalik boy bo'lmasin, kommunikativ va operatsional-texnologik komponentlar rivojlanmagan bo'lsa, o'qituvchi bilimlarini samarali yetkaza olmaydi. Shu bois kompetentlikni shakllantirishda barcha komponentlarning muvozanatli rivojlanishiga e'tibor qaratish lozim.

Kompetentlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin: uzluksiz kasbiy malaka oshirish tizimini yo'lga qo'yish; ochiq mashg'ulotlar va o'zaro tajriba almashinuvini tashkil etish; zamonaviy raqamli va simulyatsion vositalardan foydalanish; ustoz-shogird tizimini rivojlantirish; hamda ofitser-o'qituvchining o'z-o'zini tarbiyalash va refleksiya faoliyatini rag'batlantirish.


Aviatsiya jihozlarini o'qitish jarayonida ushbu shart-sharoitlar alohida ahamiyat kasb etadi, chunki fan yuqori texnik murakkablikka ega bo'lib, nazariy bilimlarni amaliy va

simulyatsion mashg'ulotlar bilan uzviy bog'lashni taqozo etadi. Trenajyorlar, interaktiv stendlar va virtual laboratoriyalardan foydalanish ofitser-o'qituvchining operatsional-texnologik kompetentligiga bevosita bog'liqdir.

Natijalar va ularning muhokamasi

Kompetentlikning shakllanganlik darajasini baholash maqsadida ofitser-o'qituvchilar misolida tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Tadqiqotda 24 nafar ofitser-o'qituvchi ishtirok etdi. Diagnostika har bir komponent bo'yicha maxsus mezonlar asosida amalga oshirilib, uch daraja quyi, o'rta va yuqori darajalar ajratildi.

Baholash uchun quyidagi usullar majmuidan foydalanildi: ochiq mashg'ulotlarni pedagogik kuzatish va tahlil qilish, o'z-o'zini baholash so'rovnomasi, ekspert baholash hamda tinglovchilar fikrini o'rganish. Har bir komponent bo'yicha olingan ballar umumlashtirilib, foiz ko'rsatkichlariga aylantirildi. Tajriba boshida va yakunida olingan natijalar dinamikasi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Kompetentlik komponentlarining shakllanganlik dinamikasi

Grafikda ko'rinib turibdiki, pedagogik shart-sharoitlar amaliyotga tatbiq etilgandan so'ng barcha komponentlar bo'yicha ko'rsatkichlar sezilarli darajada oshgan. Ayniqsa operatsional-texnologik (38% dan 72% gacha) va refleksiv-baholovchi (35% dan 69% gacha) komponentlarda eng katta o'sish kuzatildi. Bu natijalar tanlangan pedagogik yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida bir qator muammolar ham aniqlandi: ayrim ofitser-o'qituvchilarda pedagogik-metodik tayyorgarlikning yetishmasligi, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarining pastligi hamda malaka oshirishga bo'lgan motivatsiyaning turlicha bo'lishi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun tizimli va bosqichma-bosqich yondashuv talab etiladi.

Tadqiqot natijalari asosida ofitser-o'qituvchilar uchun quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi: har bir o'qituvchi uchun individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzish; pedagogik-psixologik seminar-treninglarni muntazam tashkil etish; eng tajribali ofitser-o'qituvchilarni yosh mutaxassislarga biriktirish; ochiq mashg'ulotlar tahlilini o'zaro qo'llab-quvvatlash muhitida o'tkazish; hamda kompetentlik darajasini davriy diagnostika qilib borish.

Ushbu tavsiyalarning amalga oshirilishi nafaqat ayrim o'qituvchilarning, balki butun kafedra va institut miqyosidagi pedagogik jamoaning kasbiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Natijada esa harbiy mutaxassislar tayyorlash sifati ko'tariladi, bu esa Qurolli Kuchlarning jangovar tayyorgarligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa

O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, ofitser-o'qituvchining kasbiy pedagogik kompetentligi - bu harbiy-kasbiy va pedagogik tayyorgarlikning uyg'unligini ifodalovchi murakkab, ko'p komponentli integral shaxsiy sifatdir. U harbiy ta'lim sifatini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ikkinchidan, kompetentlik tuzilishida motivatsion-qadriyatli, kognitiv, operatsional-texnologik, kommunikativ, reflektiv-baholovchi va harbiy-kasbiy komponentlar o'zaro bog'liq holda faoliyat yuritadi. Ularning muvozanatli rivojlanishi kompetentlikning yaxlitligini ta'minlaydi.

Uchinchidan, aniqlangan pedagogik shart-sharoitlarni amaliyotga tatbiq etish kompetentlik ko'rsatkichlarini sezilarli oshirishga imkon berdi, bu esa taklif etilgan yondashuvning samaradorligini isbotlaydi.

To'rtinchidan, kompetentlikni shakllantirishda ofitser-o'qituvchining shaxsiy namunasi va harbiy-kasbiy tajribasi alohida ahamiyat kasb etadi. Harbiy pedagogikaning o'ziga xosligi aynan shu jihatda namoyon bo'ladi va uni umumiy pedagogikadan farqlab turadi.

Shunday qilib, ofitser-o'qituvchining kasbiy pedagogik kompetentligini rivojlantirish uzluksiz, maqsadli va tizimli jarayon bo'lib, harbiy ta'lim muassasasi faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu kompetentlikni raqamli ta'lim muhitida rivojlantirish, shuningdek uni baholashning ilmiy asoslangan diagnostik vositalarini takomillashtirish masalalarini chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. -Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Harbiy ta'lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. -Toshkent.
3. Xolmuhammedov M. Harbiy pedagogika asoslari. - Toshkent: Fan, 2019. - 240 b.
4. Munavvarov A.K. Pedagogika. - Toshkent: O'qituvchi, 2018.
5. Barxaev B.P. Pedagogika. - SPb.: Piter, 2017. - 448 s.
6. Zimnyaya I.A. Klyuchevye kompetentsii kak rezultativno-tselevaya osnova kompetentnostnogo podxoda v obrazovanii. — Moskva, 2015.
7. Slastenin V.A. Pedagogika: uchebnoe posobie. — Moskva: Akademiya, 2016.
8. Hutmacher W. Key competencies for Europe. — Council of Europe, Strasbourg, 1997.